

## YEVROPA ITTIFOQIDA MUALLIFLIK HUQUQINING TARIXIY RIVOJLANISHI

**Bahromov Lazizjon Azizjon o'g'li**

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*magistratura bosqichi talabasi*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada mualliflik huquqining tarixiy paydo bo'lishi hamda rivojlanish bosqichlari aniq ma'lumotlar bilan berib o'tilgan va atroflicha yoritilgan. Shuningdek, maqolada Yevropa mintaqasida mualliflik huquqining tarixiy rivojlanishining tarixiy jarayonlari hamda bosqichlari haqida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar.** *mualliflik huquqi, Yevropa ittifoqi, Bern konvensiyasi, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti.*

Mualliflik huquqi fuqarolik huquqi va xalqaro xususiy huquqning tarkibiy qismi bo'lib, tarixiylik, harakat doirasining kengligi, ham milliy qonunchilik normalari, ham xalqaro normalaming bir xilda qo'llanishi bilan ajralib turadi. Mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi hisoblangan – fan, adabiyot, san'at asarlarini yaratish, ulardan turli ko'rinishda foydalanish, ayirboshlash natijasida kelib chiqadigan munosabatlarni tartibga soladi. Bu munosabatlarda bir tomondan jismoniy shaxslar qatnashsa, ikkinchi tomondan esa yuridik shaxslar yoki xalqaro tashkilotlar yoxud davlatlar qatnashishi mumkin.

XV asrda nemis qomusiy olimi I.Gutenberg kitob bosish dastgohini ixtiro qilishi natijasida sanoat usulida birinchi marta ommaviy ravishda kitobning nashr etilishi mualliflik huquqi himoyasining kelib chiqishiga olib keldi. XVI-XVII asrlardagi mualliflik huquqi muhofazasi jarayoniga nazar tashlaydigan bo'lsak, asar yaratgan muallifning huquqi emas, balki kitob chiqarayotgan noshirning huquqi himoya qilinadi.

Mualliflik huquqiga oid bo'lgan dastlabki qonunlar 1709-yilda Angliyada, 1790-yilda AQSHda, 1791-yillarda Fransiyada, 1794-yillarda Rossiyada, 1762-yilda Ispaniyada, 1830-yilda Rossiyada qabul qilingan [2]. Bu qonunlarga ko'ra, mualliflik huquqi nafaqat bir mamlakat hududida, balki butun dunyoda himoya qilinishi ham norma sifatida belgilangan. Mualliflik huquqi "inson huquqlari"ning ham ajralmas qismi hisoblanadi.

Ijod erkinligi ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, ilmiy ixtirolar, adabiyot va san'atda yangi asarlar yaratish asosida amalga oshiriladi. Davlat esa mualliflarning bosh homiysi, jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi. 1956-yili 35 ta davlat vakillari ishtirok etgan Xalqaro mualliflar va bastakorlar konfederatsiyasi tomonidan qabul qilingan Xartiyada ham adabiyot, badiiy va ilmiy asarlar mualliflari jamiyatda muhim o'rinni egallashlari, ular insoniyatning umumiy manfaatlari oldida javobgar ekanligi hamda sivilizatsiyaning rivojlanishida hal qiluvchi kuch ekanligi ta'kidlanadi [3]. Har qanday davlat milliy qonunchiligini yaratayotganda mualliflik huquqiga oid yuqoridagi tamoyillarni qonun doirasida mustahkamlashi, muallifning erkin irodasini doimo himoya ostiga olishi Xartiyaning asosiy g'oyasini tashkil etadi. Bugungi kunda ushbu Xartiya asosida 116 ta

davlatdagi mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarni o'zida birlashtirgan CISAC tashkiloti faoliyat yuritmoqda [4].

Mualliflik huquqi bo'yicha ko'rsatmalarni amalga oshirish boshqa ko'plab subyektlarga qaraganda ancha ziddiyatli bo'ldi, buni Axborot jamiyati direktivasining o'tkazilmasligi to'g'risidagi oltita qarordan ko'rish mumkin. An'anaga ko'ra, mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunlar a'zo davlatlar o'rtasida, xususan, fuqarolik huquqi va umumiy huquq yurisdiksiyalari o'rtasida sezilarli darajada farq qiladi. Mualliflik huquqi to'g'risidagi qonundagi o'zgarishlar Jahon Savdo Tashkilotiga va umuman globallashuvga qarshi noroziliklar bilan ham bog'liq bo'ldi.

Mualliflik huquqi bo'yicha 1952-yilgi Butunjahon konvensiyasi (Jeneva) hamda Adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasi (1886) mavjud. Adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasi mualliflik huquqini himoya qilishning qat'iy tizimini o'zida ifodalaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda intellektual mulk muhofazasi yo'nalishi amaliy va nazariy jihatdan sohadagi xalqaro hujjatlar me'yorlari asosida tartibga solingan bo'lib, milliy qonunlarimizdagi intellektual mulk ob'ektlarining ekspertizasi bilan bog'liq jihatlar Butunjahon intellektual mulk tashkilotining xalqaro konvensiya va shartnomalari hamda Jahon savdo tashkilotining Intellektual mulk huquqlarining savdo jihatlari bo'yicha bitimi (TRIPS) bitimi talablariga moslashtirilgan. Mamlakatimiz xalqaro hamkorlik yo'nalishida ham intellektual mulk bilan bog'liq siyosatni asosiy ustuvor masalalar sifatida olib bordi. Masalan, 1995-yilda O'zbekiston JSTga a'zo bo'lish bo'yicha ishlarni boshlab yubordi. Ahamiyatli jihati, 2000-yillarga kelib aynan JSTning TRIPS bitimi normalari nuqtai nazaridan intellektual mulk sohasiga yangi qonun ("Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida"gi) hamda mavjud normativ-huquqiy hujjatlar yangi tahrirda qabul qilindi ("Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi, "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi, "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi).

Yevropa Ittifoqining mualliflik huquqi to'g'risidagi qonuni Yevropa Ittifoqi hududida amal qiladigan mualliflik huquqiy qonunidir. Mualliflik huquqi to'g'risidagi qonun asosan Ittifoqda uyg'unlashtirilgan, garchi mamlakatlarda farqlar mavjud bo'ls-da. Huquq to'plami Yevropa Ittifoqida bir qator direktivalar orqali amalga oshirildi, a'zo davlatlar o'zlarining milliy qonunchiligiga kiritilishi kerak. Mualliflik huquqi bo'yicha asosiy yo'riqnomalar mualliflik huquqi muddati to'g'risidagi direktiva, Axborot jamiyati direktivasi va raqamli yagona bozorda mualliflik huquqi to'g'risidagi direktiva hisoblanadi. Bundan tashqari, Ittifoqdagi mualliflik huquqi Yevropa Ittifoqi yoki ularning a'zo davlatlari ishtirok etadigan xalqaro konvensiyalarga, masalan, TRIPS bitimi yoki Bern konvensiyasiga bog'liq. Dastlab, Yevropa Ittifoqida mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunni qabul qilinishi 1886-yildagi Bern konvensiyaning ahamiyati katta hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqiga a'zo barcha davlatlar Bern konvensiyasining ishtirokchilaridir va qo'shilishdan oldin uning qarorlariga rioya qilish majburiy hisoblanadi. Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatining mualliflik huquqi qonunlarini uyg'unlashtirish bo'yicha birinchi yirik qadami 1991 yilda kompyuter dasturlari direktivasida qabul qilingan kompyuter dasturlari

mualliflik huquqini himoya qilish bo'yicha umumiy standartni qo'llash to'g'risidagi qaror bilan o'zaro bog'liqdir. Mualliflik huquqini himoya qilishning umumiy muddati 70 yilni tashkil etadi yoki muallif vafot etgunga qadar davom etadi. Ushbu muddat 1993-yilda mualliflik huquqi muddati to'g'risidagi direktiva sifatida tashkil etilgan va tasdiqlangan .

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti va YUNESKO tomonidan mualliflik huquqida jamoaviy boshqaruvni rivojlantirish yuzasidan ko'p bor ta'kidlab kelishmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, Yevropa Ittifoqi Hamjamiyatining so'nggi yillardagi direktivalarida mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni boshqarishga doir masalalar asosiy joyni egallab kelmoqda. Xususan, 2014-yil 26-fevralda Yevropa Ittifoqi parlamenti va kengashining 2014/26/EU-son "Yevropa Ittifoqi hududida musiqiy asarlardan hududlararo foydalanishni litsenziyalash"ga doir direktivasi qabul qilingan. Mazkur direktiva huquq egalari mualliflik va turdosh huquqlarga bo'lgan mulkiy huquqlarini yuqori darajada himoyalashga sabab bo'ldi. Shuningdek, ushbu hujjat ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlashga va rivojlantirishga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Johannes\\_Gutenberg](https://uz.wikipedia.org/wiki/Johannes_Gutenberg)
2. [https://en.wikipedia.org/wiki/History\\_of\\_copyright](https://en.wikipedia.org/wiki/History_of_copyright)
3. <https://www.hse.ru/data/2021/02/28/1395780833/16.tis-2014-1-tomxvi.pdf>
4. <https://www.cisac.org/>
5. Yuldashov, A. (2020). Intellektual mulk bo'yicha milliy strategiyalarning ahamiyati va Butunjahon intellektual mulk tashkilotining bu borada tutgan o'rni. [The importance of national intellectual property strategies and the role of the World Intellectual Property Organization in this regard. Legal Information,] Yurist axborotnomasi, 1(2), 53-59.
6. Тўракулова Н., Юлдашов А. Интеллектуал мулк ҳуқуқи ҳимоя қилиш механизмини такомиллаштиришда халқаро шартномаларнинг ўрни ва аҳамияти //Conferencea. – 2022. – С. 467-471.
7. Юлдашов А. Географик кўрсаткич тушунчаси ва иқтисодий ва иқтисодий мустаҳкамлашда унинг тутган ўрни //Юрист ахборотномаси. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 249-257.
8. Юлдашев А. Олий та'лим ва илмий-тадқиқот муассасаларининг интеллектуал мулк ҳамда инновацияларни yaratishga doir faoliyatini takomillashtirish masalalari //in Library. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 58-65.
9. Юлдашов А., Чориев М. Договорно-правовые отношения в области авторского права и ответственности за нарушение авторского права: национальный и зарубежный опыт //Общество и инновации. – 2020. – Т. 1. – №. 1/s. – С. 511-522.
10. Yuldashov, A. A. "Government policies related to social protection of disabled persons in Uzbekistan: National and international aspects" (2012): 186-191.
11. Abdugopirovich, Yuldashov Abdumumin. "Types of Legal Protection of a Trademark (Service Mark) In Foreign Countries: The Example of The Madrid System".



Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT) 12.4 (2021): 1068-1073.

12. Юлдашов А. А. Необходимость участия Республики Узбекистан в международных рейтингах и индексах в области интеллектуальной собственности //Электронный инновационный вестник. – 2021. – №. 1. – С. 18-20.

13. Юлдашов А. Ўзбекистон Республикасининг интеллектуал мулк, алоқа ва ахборот соҳасидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда муаллифлик ҳуқуқини муҳофаза қилишга доир нормаларни такомиллаштириш масалалари //Юрист ахборотномаси. – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 58-64.